



TASAVVUF – MA’NOLAR ILMI YOXUD ABDUVALI QUTBIDDINING “DAM” SHE’RI TAHLILIGA DOIR MULOHAZALAR

Shahodat Isakjanova,

O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207160>

Annotatsiya. Mazkur maqolada insoniyat hayotida dinning ahamiyati, tasavvuf ilmining zarurati borasida muxtasar so‘z yuritilib, tasavvufning XX asr 80-yillariga kelib yangi avlod she‘riyati, xususan, Abduvali Qutbiddin poetikasidagi o‘rni borasida uning “Dam” she‘ri tahlili orqali ayrim mulohazalar bayon qilinadi. Shuningdek, shoirning ayrim misralarida tasavvufning yetuk darg‘alari ilgari surgan konsepsiyalariga mushtaraklik borligi haqidagi xulosalar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: diniy-ma‘rifiy evrilishlar, liro-epik janr, dialektika, hayot dissonanslari, ilohiy ishq, sinkretizm, falsafiy tasavvuf, tariqat, shoirona topilma, original metaforalar.

“XX asrning 80-yillariga kelib, she‘riyatda yangi avlod shakllana boshladi. Asqar Mahkam, A‘zam O‘ktam, Aziz Said, Eshqobil Shukur va Abduvali Qutbiddin kabi 60-yillarda tug‘ilgan yoshlar ozodlik g‘oyalarini kuylash bilan birga diniy e‘tiqod mavzularini ham she‘riy san‘atlar yo‘li bilan goh oshkor, goh yashirin tarzda ifoda etdilar” .

Aytish kerakki, umuman, o‘zbek adabiyoti, xususan, she‘riyati tabiatida bo‘y ko‘rsata boshlagan mazkur diniy-ma‘rifiy, badiiy-konseptual evrilishlar o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmagan edi. Bilamizki, o‘zbek adabiyoti tamalida din va tasavvufiy ilmlarning ulkan hissasi bor, ta‘bir joiz bo‘lsa, bu holat aruz va barmoq vaznidagi she‘rlardan ham oldin xalq og‘zaki ijodidagi liro-epik janrlarga borib taqaladi (Birgina “Alpomish” dostonidagi Alpomish, Barchinning tushlari, Qorajonning tush ko‘rgandan keyingi harakatlarini eslang). Tarixdan ma‘lumki, O‘rta Osiyo aholisi zardushtiylik dini orqali dunyoni anglash, azaliy va abadiy ziddiyatga doxil qiluvchi qarama-qarshi kuchlarning dialektikasini olamning asosi sifatida qabul qilish, pirovardida ezgulik, oliyjanoblik, to‘g‘riso‘zlik, himmatsevarlik kabi fazilatlarining g‘alabasiga ishonib yashashgan. Kanishka hukmronlik qilgan davrdan boshlab Hindiston istilosi negizida buddaviylik dinining kirib kelishiga zamin yaratiladi. Shundan so‘ng aholi o‘rtasida to VII asrga qadar zardushtiylik va buddaviylik diniga e‘tiqod qilish kuzatila boshlangan. Shuningdek, VI-VII asrlarda O‘rta Osiyoda moniylik, shomonlik kabi dinlar ham aholi orasida keng yoyilganligi tarixiy manbalardan ma‘lum. Xullas, islomgacha bo‘lgan turkiy adabiyot namunalari



nazar solinganda moniylik, shomonlik, zardushtiylik, buddaviylik kabi oqimlar asosida shakllangan ijod namunalariga duch kelamiz. Ahamiyatli jihati shundaki, aholi e'tiqod qo'yg'an dinlarning muqaddas bitiklari ("Avesto", "Oltin yorug' kabilar)da garchi ba'zi qoida, shakl-shamoyil va amallarida tafovutlar kuzatilsa-da, aslida, barchasining mohiyati mushtarak ekanligi; inson hamisha ezgulikka intilib yashashi lozimligi; hayot dissonanslari – tiriklik va o'lim, haqiqat va yolg'on, muhabbat va xiyonat, adolat va zulmda hamisha ijobiy pozitsiyada tura olishi, insoniy burch-aqidalaridan og'ishmay yashashi borasida mohiyatan bir ekanligi anglashiladi. Demak, din hamisha insoniyat zulmatini yorituvchi mayoq o'laroq xizmat qilgan.

O'rta Osiyoga islom dinining kirib kelishi, shuningdek, muqaddas kalom Qur'oni Karim orqali yuqorida so'z yuritganimiz ezgulik va insoniylik borasidagi tamoyillar yanada muayyanlashdi. Negaki islom dini dinlarning eng mukammali edi.

Din insonni atrofini qamragan voqelikni mushohada qilishga, fikr tarozisiga solishga, o'y-fikrlar vositasida o'zligini anglab yetishiga va pirovardida Haqni tanishga undovchi vositadir. Albatta, bunda "islom bag'rida nish urib, Qur'on va hadislar hikmatidan oziqlangan" tasavvuf ilmining o'rni nihoyatda ulkandir.

Tasavvufning vujudga kelishi, taraqqiyot tarixi haqida bir qancha qimmatli asarlar yaratilgan bo'lib, ular orasida Abdulrofe' Haqiqatning "Eronlik oriflar va irfon tarixi", Sajjodiyning "Tasavvuf muqaddimasi", Najmiddin Komilovning "Tasavvuf" kabi kitoblarni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, mazkur asarlarda istilohning kelib chiqish tarixi ancha mufassal yoritib berilgan.

Umuman olganda, tasavvuf misoli bir ummondir. Uni o'rganishga butun umr ham kamlik qiladi(Bertels aytganiday, bir asr ham yetmaydi).

Tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov tasavvufga: "Tasavvuf diniy e'tiqod, hikmat(falsafa), badiiy ijod omuxtaligidagi hissiy-tafakkuriy ta'limot bo'lib, ilohiy ishq bayonnomasidir", deb ta'rif berar ekan, ushbu ilm bag'rida juda ko'p ilmlar sinkretik tarzda bo'y ko'rsatganligi anglashiladi.

Shu ma'noda tasavvuf badiiy adabiyotga ham juda kata ta'sir qilgan. Uning, xususan, Sharq mamlakatlarida chuqur ildiz otganligi negizida avvalo insonparvarlik va haqsevarlikni targ'ib etganligi bilan bog'lanadi.

80-yillarga kelib o'zbek adabiyotida tasavvuf g'oyalari bilan oziqlangan she'riyatning asta-sekinlik bilan tirila borishi uning necha-necha asrlardan beri mustahkamlanib kelayotgan ildizidan uzilib ketmaganligining nishonasi o'laroq in'ikos etdi. Aytish kerakki, bu borada o'zining tasavvufiy ohanglari bilan

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



she'riyatga yangicha ko'tarilish olib kirgan ijodkorlardan biri Abduvali Qutbiddin edi.

“Hozirgi o‘zbek she'riyatida individual uslub poetikasi” mavzusida tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olim Mahfuza Davronova dissertatsiyasining oxirgi faslida “Tasavvufiy dunyoqarash va modern ohang uyg'unligi” haqida gap borgan bo'lib, unda Abduvali Qutbiddinning tasavvufiy she'rlari tahlilga tortiladi.

Olima Abduvali Qutbiddinning tasavvufiy ohanglarida din va falsafaning omuxtaligiga alohida urg'u berib, jumladan, shunday deydi: “Abduvali Qutbiddin she'riyati quyuq obrazlilik, metafora va ramzlarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. U universal she'riy shakllarga ko'p murojaat qiladi. Bir she'rda turlicha she'riy shakllarni ham qo'llayveradi. Ham diniy, ham falsafiy tasavvuf tushuncha, aqidalarni yaxlit holda aks ettirish Abduvali Qutbiddinning xos belgisidir”.

Albatta, Abduvali Qutbiddinning diniy-tasavvufiy mavzudan boshqa ijod namunalarida ham, masalan, ijtimoiy-siyosiy yoki muhabbat haqidagi she'rlarida ham shoirning falsafiy mushohadalari, original tasvir va ifodalari, umuman, olamni “boshqacha” anglashi bo'y ko'rsatib turadi. Ammo uning tasavvufiy she'rlariga kelganda, nazarimizda, uni ikki tarmoqqa – diniy tasavvuf va falsafiy tasavvufga ajratib qo'yish biroz bahslidek ko'rinadi. Negaki yuqorida tasavvufshunos olim Najmiddin Komilovning asaridan iqtibos keltirganimizda ham mazkur ilmning negizida omuxtalik – sinkretiklik xususiyati borligini, ya'ni tasavvuf ilmi bir butun ilm bo'lganligi holda o'z ichiga bir qancha tarkibiy qismlarni(din, falsafa, adabiyot, san'at)ni qamrab olishini ta'kidlab o'tdik.

Mohiyatan olib qaraganda, tasavvuf o'z ichiga aql-mushohadani ham, his-hayajonni ham jo qila oladigan ulkan xazinadir.

Abduvali Qutbiddinning “Dam” she'riga e'tiborimizni qaratamiz:

Depsinma – siqilma – yiqilma g'ussa –

Uzilmay tur metin shoxlardan –

Pishqirma – o'shqirma – alam daryosi –

Sapchitib oqizma – ohu vohlarni –

Odam dunyosi –

dam dunyosidir –

Shoir dunyoning yel kabi o'tib ketuvchi ekanligi, bandaga berilgan umr omonatligini metaforalarga yo'g'rilgan holda ifodalaydi. Shu o'rinda naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Bahouddin Naqshbandning:

Hechi mo ne-yu hech kam ne,

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



Az payi hech-hechi mo g‘am ne,
Janda bir pusht, pushti go‘riston,
Ro‘ze, ki mirem hech motam ne

ya’ni hech narsamiz bo‘lmaganligi sababli hech narsadan kamimiz yo‘q, hech narsaning ortidan g‘amimiz ham yo‘q. Egnimizda janda-yu, ortimizda go‘riston, vafot etgan kunimiz hech bir motamning keragi ham yo‘q kabi satrlariga Abduvali Qutbiddinning yuqoridagi parchasi hamohang ekanligi, inson bolasi hech bir narsaga qaram bo‘lmasligi, hech narsaga g‘am chekmasligi, zotan, Odam dunyosi bir zumda o‘tib ketuvchi dam dunyosi ekanligi kabi fikrlar, aslida, tasavvuf ahllarining yakdil va mushtarak qarashlarini namoyon etibgina qolmay, bashariyatga xos bo‘lgan o‘tkinchi dunyo uchun g‘am yeyish, g‘ussa-nadomatga berilish, alamdan oh-voh qilish kabi sifatlardan mutlaq xalos bo‘lishga, ruhni pok saqlashga da’vat qiladi.

Ko‘rinadiki, Abduvali Qutbiddin she’ridagi “Odam dunyosi – dam dunyosi” metaforasi aynan Xoja Bahovuddin Naqshband aytgan “hechlik” tamoyilining mezonlarini anglatishda o‘ziga xos kalit vazifasini o‘taganday taassurot uyg‘otadi.

She’ning keyingi bandiga e’tibor qaratamiz:

Qisinma – qullug‘-u qullikdan chekin
Ey qalb yog‘dusi – porla – yon – chaqil –
Urilgay hamisha azaliy ekin –
O‘roqchi hukmida – suv – havo – yer – yel –
– Odam dunyosi –
dam dunyosidir –

She’ning birinchi bandida dunyoning hech bir matohi uchun g‘am chekmaslik haqida gap borsa, mazkur bandda hech kimga tobe va qaram bo‘lmaslik borasida mulohaza yuritiladi. Tasavvuf ta’limotiga ko‘ra, “So‘fiyga hech bir narsa va hech bir kishi qaram bo‘lmasligi; uning o‘zi ham hech bir narsaning, hech bir odamning qarami bo‘lmasligi kerak”. Asosiy masala yana o‘sha – qalbni pok saqlashga, pok ruhni tarbiyat qilishga qaratiladi. Shuningdek, shoir Olloh taoloni “O‘roqchi” metaforasi bilan nomlab, faylasufona originallik, ya’ni dunyoning to‘rt unsuri orqali Olloh qudratining cheksizligini ifodalaydi, butun koinot, yer yuzi, jamiki mavjudot ibtidosidan intihosiga qadar Uning hukmida ekanligiga ishora qiladi.

Abduvali Qutbiddin she’ning uchinchi bandida:

Ma’mur bo‘l – obod bo‘l – zinhor dod bo‘lma,
Yerga shod etmakka kelgansan – yod et



deyish orqali go‘yoki tasavvuf ahli – so‘fiylarga xos ta‘rifni, ya‘ni tasavvuf yo‘liga kirgan solikning asosiy missiyasi o‘zidan qutulib, o‘zgalarga naf keltirish, faqat va faqat ezguliklar qilish, har qanday yomonlikdan xalos bo‘lish kabilarni ilgari suradi. Aslida, tasavvuf ahllarining mazkur sifatlari borasida mumtoz adabiyotimiz vakillari, jumladan, Alisher Navoiy, So‘fi Olloyor, Aburahmon Jomiy, Xo‘janazar Huvaydo kabi shoirlarimiz ham gapirib o‘tishgan. Ayniqsa, Abdurahmon Jomiyning “Suhbat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning suhbat”) asarida ham Abduvali Qutbiddinning “shod etmakka kelmak” missiyasiga hamohang fikrlarni uchratamiz. Bu esa davrlar almashinishi, zamon yangilanishi, ijtimoiy muhitdagi evrilishlar kabi bir qancha xususiyatlarning tasavvuf vakillari ilgari surgan va surayotgan g‘oyalariga ta‘sir qilolmasligi, har davrda ham ularning foniy dunyoning mayda-chuyda tashvishlaridan tamoman xoli ekanligini, qalblarida Ollohga bo‘lgan ishqning, tafakkurlarida yuksak falsafiylikning bo‘y ko‘rsatib turishini oshkor etadi.

Shu bandning:

Vaqtincha mahramga oshno bo‘lma –

Ey Ruh – dargohingmas tovlanguvchi et

misralari she‘rning butun mohiyatini o‘z atrofiga birlashtiradi. Shoir vaqtincha mahram deyish orqali insonning foniy dunyoga aldanmasligi, jismning ruh oshyon tutgan muvaqqat makon ekanini unutmazlikka chaqiradi.

She‘rning so‘nggi bandida shoir dunyoni “muloyim botqoq” deb ataydiki, aslida, yuqoridagi barcha bandlar shu botqoqqa botmaslik uchun da‘vat ekanligi tadrijiylik asosida oshkor bo‘la boradi.

Xullas, Abduvali Qutbiddinning “Dam” she‘ri tahlili mobaynida unda, avvalo, tasavvuf ilmiga xos chuqur mulohaza va falsafiylikning ustuvorligi, qolaversa, she‘r mag‘ziga singdirilgan ayni shu g‘oyalarning shoirona topilmalar, original metaforalar yordamida nihoyatda ta‘sirchan tarzda ifoda etilganligini ko‘ramiz. Abduvali Qutbiddin tasavvufning boshqa namoyondalari kabi insonga xos ruhiy barkamollik, haqiqiy komillik, ma‘nan yetuklik kabi sifatlarni she‘rlarida ilgari sura olganligi, shuningdek, zamonaviy o‘zbek adabiyotida irfoniy mavzularning muvaffaqiyatini ta‘minlaganligi bilan ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduvali Qutbiddin. Bor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011.
2. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband. / Forsiydan tarjimon, so‘zboshi, izoh va lug‘at muallifi Mahmud Hasaniy. – Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2019.

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani**



3. Komilov N. Tasavvuf. – Toshkent: “Movoraunnahr” – “O‘zbekiston”, 2009.
4. Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muhabbat. Mukammal asarlar to‘plami. T.17. – Toshkent: Fan, 2001.
5. Davronova M. Hozirgi o‘zbek she‘riyatida individual uslub poetikasi (Usmon Azim, Iqbol Mirzo, Faxriyor va Abduvali Qutbiddin she‘riyati misolida). Filol.fan.doktori (DSc) disser. – Samarqand, 2019.
6. Yoqubov J. O‘ktam shoirning a‘zam iqrori yoxud “Bir kun”dan xulosalar. A‘zam O‘ktam ijodi badiiyati. Xalqaro ilmiy-onlayn konferensiya materiallari. Andijon – 2020.

